104.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining ijrosini ta'minlash borasida Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti, Suv sohasida barqaror rivojlanish markazi, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi hamda Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti tomonidan olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Iyul	Z.Ishpulatov, B.Rajabov, S.Alimov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
105.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 492-sonli qarori ijrosi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi vazirlik tizim tashkilotlarining inson resurslarini boshqarishga oid barcha ma'lumot va hujjatlarini "hrm.argos.uz" elektron platformasida yuritilishi holatini maqsadli o'rganish.	Iyul	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, S.Xikmatov, N.Raupova (u)
106.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qaroriga asosan Norin-Qoradaryo ITHB tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, rivojlantirish jamg'armalariga mablag'tushirish hamda ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishini o'rganish.	Iyul	O'.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)
107.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-fevraldagi "2026–2027-yillarda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–35-sonli qaroriga asosan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini o'rganish.	Iyul	R.Qarshiyev, B.Yunusov, R.Tashev (u)
108.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF–74-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv xo'jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Iyul	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, I.Ergashev, D.Nazarov (u)
109.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-sonli farmoni hamda 2025-yil 18-avgustdagi PQ–250-sonli qaroriga asosan suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish, xususan, suv xo'jaligi obyektlariga raqamli qurilmalar o'rnatilishini ta'minlash bo'yicha Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Iyul	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo'rayev (u)
110.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2025-yillarda Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini maqsadli o'rganish.	Iyul	M.Karimov, A.Tagayev, T.Ro'ziboyev (u)
111.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ–250-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalar doirasida erishilayotgan yutuq va natijalar bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish borasida: Amu-Qashqadaryo ITHB; Quyi Zarafshon ITHB; Norin-Sirdaryo ITHB;	Iyul Avgust	Z.Ishpulatov, Sh.Suyunov, O.Norbekov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas’ullar
	Zarafshon ITHB; Quyi Sirdaryo ITHB; Amu-Surxon ITHB tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Sentabr Oktabr Noyabr Dekabr	
112.	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-dekabrda “Daryo o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1009-sonli qaroriga asosan Namangan, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Iyul, Avgust, Sentabr	Z.Ishpulatov, R.Raximov, Z.Irisboyev, Sh.Ismailov (u)
113.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktabrdagi PQ–4502-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-dekabrda 971-sonli qarori ijrosini ta’minlash borasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi tizim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Avgust	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, S.Xikmatov, J.Xolmamatov (u)
114.	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-dekabrda “Suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan sanoat va energetika tashkilotlariga texnik suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1008-sonli qarori ijrosini hamda suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘ tushirish borasida Quyi Zarafshon ITHB tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Avgust	O‘.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)
115.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-mayda “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi PF–74-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv xo‘jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Jizzax va Samarqand viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Avgust	R.Qarshiyev B.Yunusov A.Xodjabayev (u)
116.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrda “Surxondaryo viloyatining salohiyati va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–386-sonli qarorida belgilangan irrigatsiya va melioratsiya loyihalari ijrosini maqsadli o‘rganish.	Avgust	O‘.Sheraliyev, N.Xujaqulov, D.Abdullayev (u)
117.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martda “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ–96-sonli qarorida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o‘rganish.	Avgust	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, D.Nazarov (u)
118.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2025-yillarda Jizzax, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini maqsadli o‘rganish.	Avgust	M.Karimov, A.Tagayev, U.Toshmatov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas’ullar
119.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-sonli farmoni hamda 2025-yil 18-avgustdagi PQ–250-sonli qaroriga muvofiq suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish, xususan, suv xo‘jaligi obyektlariga raqamli qurilmalar o‘rnatilishini ta‘minlash bo‘yicha Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Avgust	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo‘rayev, S.Xaydarov (u)
120.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–47-sonli qaroriga asosan suv tejovchi texnologiyalarni qurib beruvchi pudrat tashkilotlari tomonidan har bir loyihaga kamida 2 yillik kafolat muddati berilishi hamda 5 yil davomida servis ko‘rsatilishini ta‘minlash borasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida olib borilayotgan ishlarni o‘rganish.	Avgust, Sentabr	Z.Ishpulatov, R.Raximov, Z.Irisboyev, A.Tashmatov (u)
121.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF–95-sonli farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi tizim tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Sentabr	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, S.Xikmatov (u)
122.	Sirdaryo-Zarafshon ITHB tomonidan mavjud mashina va mexanizmlarni ishlatishdan rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lar tushurilishini ta‘minlash borasida olib borilayotgan ishlarni o‘rganish.	Sentabr	O‘.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)
123.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi PF–74-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv xo‘jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Sentabr	R.Qarshiyev B.Yunusov (u)
124.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda “Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ–392-sonli qarorida belgilangan irrigatsiya va melioratsiya loyihalari ijrosini maqsadli o‘rganish.	Sentabr	O‘.Sheraliyev, N.Xujaqulov, J.Turdiyev (u)
125.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2025-yillarda Samarqand Navoiy va Buxoro viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining natijadorligini maqsadli o‘rganish.	Sentabr	M.Karimov, A.Tagayev, O.Abdulakimov (u)
126.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-sonli farmoni hamda 2025-yil 18-avgustdagi PQ–250-sonli qarorida suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish yuzasidan berilgan topshiriqlar xususan, suv xo‘jaligi obyektlariga raqamli qurilmalar o‘rnatilishini ta‘minlash bo‘yicha Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Sentabr	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo‘rayev, S.Xaydarov (u)
127.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan	Sentabr, Oktabr,	Z.Ishpulatov, R.Raximov,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-sonli qaroriga asosan, yer usti suvlari obyektlarida suvning oqilona boshqarilishi, suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga rioya etilishini Sirdaryo, Toshkent, Jizzax viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Noyabr	Z.Irisboyev, A.Tashmatov (u)
128.	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22 sentabrdagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 492-sonli qarori ijrosi bo'yicha Andijon Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi vazirlik tizim tashkilotlarining inson resurslarini boshqarishga oid barcha ma'lumotlar va hujjatlarini "hrm.argos.uz" elektron platformasida yuritilishi holatini maqsadli o'rganish.	Oktabr	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, S.Xikmatov, J.Xolmamatov (u)
129.	Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qaroriga asosan Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, rivojlantirish jamg'armalariga mablag'lar tushirish hamda ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishini o'rganish.	Oktabr	O'.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)
130.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF-74-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv xo'jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Buxoro va Navoiy viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Oktabr	R.Qarshiyev B.Yunusov A.Xodjabayev (u)
131.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi "2026-yilda Navoiy viloyatini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-58-sonli qarorida belgilangan irrigatsiya va melioratsiya loyihalari ijrosini maqsadli o'rganish.	Oktabr	O'.Sheraliyev, N.Xujaqulov, O.Ravshanov (u)
132.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2020-2025 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazim viloyatida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining natijadorligini maqsadli o'rganish.	Oktabr	M.Karimov, A.Tagayev, O.Abdulakimov, B.To'rayev (u)
133.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli farmoni hamda 2025-yil 18-avgustdagi PQ-250-sonli qarorida suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish, xususan, suv xo'jaligi obyektlariga raqamli qurilmalar o'rnatilishini ta'minlash bo'yicha Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Oktabr	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo'rayev, A.Musayev, S.Xaydarov(u)
134.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv	Noyabr	R.Qarshiyev B.Yunusov R.Tashev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas’ullar
	xo‘jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.		
135.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktabrdagi PQ–4502-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-dekabrdagi 971-sonli qarori ijrosini ta’minlash borasida Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi tizim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Noyabr	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, S.Xikmatov (u)
136.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ–96-sonli qarorida belgilangan irrigatsiya va melioratsiya loyihalari ijrosini maqsadli o‘rganish.	Noyabr	O‘.Sheraliyev, N.Xujaqulov, O.Shomurodov (u)
137.	Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-apreldagi “2026–2027-yillarda Andijon viloyatining Paxtaobod tumani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 187-sonli qarorida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o‘rganish.	Noyabr	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, I.Ergashev, D.Nazarov (u)
138.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-maydagi “Sel-toshqin suvlaridan samarali foydalanishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–201-sonli qarorida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o‘rganish.	Noyabr	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, I.Ergashev (u)
139.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2021–2025-yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini maqsadli o‘rganish.	Noyabr	M.Karimov, A.Tagayev, T.Ro‘ziboyev (u)
140.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-sonli farmoni hamda 2025-yil 18-avgustdagi PQ–250-sonli qaroriga muvofiq suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish yuzasidan berilgan topshiriqlar xususan, suv xo‘jaligi obyektlariga raqamli qurilmalar o‘rnatilishini ta’minlash bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Noyabr	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo‘rayev (u)
141.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–95-sonli farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash borasida Toshkent, Sirdaryo viloyatlaridagi tizim tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Dekabr	Z.Ishpulatov, D.Alikulova, J.Xolmamatov (u)
142.	Chapqirg‘oq-Amudaryo ITHB tomonidan suv xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishdan rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lar tushurilishini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Dekabr	O‘.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
143.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini suv xo'jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish borasida Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	Dekabr	R.Qarshiyev B.Yunusov (u)
144.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-iyundagi "Qurilish sohasida natijaga asoslangan boshqaruvni joriy etish hamda sohada davlat xizmatlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-104-sonli farmonida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish.	Dekabr	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, I.Ergashev (u)
145.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-iyundagi "2026-yilda Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-220-sonli qarorida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish.	Dekabr	Z.Ishpulatov, M.Qurbonov, I.Ergashev, A.Raxmatillayev (u)
146.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Hukumat hujjatlariga asosan 2021-2025-yillarda Samarqand va Jizzax viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining natijadorligini maqsadli o'rganish.	Dekabr	M.Karimov, A.Tagayev, U.Toshmatov, Ye.Davletiyarov (u)
V bob. 2026-yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan vazirlik hay'atining majlislarida muhokama qilinadigan masalalar			
147.	Vazirlik tizimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning I yarim yillik yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli hamda PF-22-sonli farmonlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida. 2026-yilning II choragida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni baholash haqida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ-393-sonli qarori ijrosini so'zsiz ta'minlash, 2026-yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda meliorativ obyektlarni tizimli ta'mirlash-tiklash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya	Iyul	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, M.Ibragimov (u) Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, A.Xasanov (u) O'.Sheraliyev, N.Xo'jaqulov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	tizimlari havza boshqarmalari hamda "Suvqurilishinvest" davlat muassasalarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish to'g'risida.		
148.	Vazirlik tizimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning I yarim yillik yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan joriy yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida. 2026-yilning III choragida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga n ishlarni baholash haqida. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga asosan sohada ishlayotgan xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning mu qarrarlighi prinsipini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi muhim vazifalar to'g'risida.	Oktabr	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, M.Ibragimov (u) Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, A.Xasanov (u) Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, O.Abdug'aniyev (u)
VI bob. 2026-yilning II yarim yilligida vazirlikning tarmoq ilmiy-kengashida ko'rib chiqiladigan va muhokama qilinadigan masalalar			
149.	2026–2027-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlarini muhokama qilish.	Tasdiqlangan reja bo'yicha belgilangan muddatlarda	O'.Sheraliyev, N.Xujaqulov, O.Sabirov, O.Shomurodov (u)
VII bob. 2026-yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan vazirlik markaziy apparati majlislarida muhokama qilinadigan masalalar			
150.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "2026–2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–393-sonli qarori bilan 2026-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Iyul	O'.Sheraliyev, N.Xo'jaqulov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan suv xo'jaligi sohasidagi loyihalarni, shu jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida chet el investitsiyalarini, xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliya tashkilotlari qarzlari, grantlari va texnik ko'maklashish mablag'larini tizimli ravishda jalb qilish va o'zlashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida.		O'.Sheraliyev, S.Astanov (u)
151.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF-74-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish hamda yer uchastkalariga doimiy foydalanish huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar to'g'risida. O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikalari hamda Turkmaniston o'rtasida transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish hamda transchegaraviy suv obyektlarini ishlatishni yaxshilash, shuningdek, suv xo'jaligidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar da joriy yilga belgilangan topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida.	Avgust	R.Qarshiyev, B.Yunusov (u) Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, O.Xazratov (u)
152.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya syektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-250-sonli qarori ijrosini ta'minlash, 2026-yilda suv xo'jaligi sohasi ni raqamlashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor boshqaruviga berish yuzasidan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash yuzasidan vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining ayrim boshqarma boshliqlari va bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizimi tashkilotlari rahbar-xodimlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida.	Sentabr	M.Karimov, S.Atabayeva (u) M.Karimov, A.Tagayev (u)
153.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan 503 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar, jumladan, 75,4 ming gektarda tomchilatib, 97 ming gektarda yomg'irlatib va 127,6 ming gektarda boshqa turdagi sug'orish texnologiyalari hamda 203 gektar yerlarni lazerli	Oktabr	Z.Ishpulatov, I.Jo'rayev, O.Abdullayev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	tekislash bo'yicha joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigas iya tizimlari havza boshqarmalari hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan joriy yilda nasos stansiyalaridagi eskirgan 156 ta nasoslar va 149 ta elektrodvigatellarni yangi energiya tejamkorlariga hamda nasos stansiyalarga energotejamkor qurilmalar (kondensator, chastota o'zgartiruvchi qurilmalar, quyosh panellari) o'rnatish borasida hisobot davrida olib borilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda navbatdagi vazifalar haqida.		R.Qarshiyev, A.Qulmatov (u)
154.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi "Suv xo'jaligi sohasida bozor mexanizmlarini keng joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-99-sonli farmoni bilan belgilangan vazifalar ijrosini o'rnatilgan muddatlarda, to'laqonli hamda sifatli tashkil etish va ta'minlash, suv fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, tenglik, shaffoflik hamda bozor tamoyillariga asoslangan ilg'or xorijiy tajribani joriy etgan holda suv fondi yerlaridan qo'shimcha iqtisodiy samara olish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan "Suv xo'jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish" davlat muassasasining hisoboti. Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2026-yilda belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlar jumladan, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ularning zaxirasini shakllantirish va malakasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.	Noyabr	R.Qarshiyev, R.Sharopov (u) Z.Ishpulatov, B.Alimov, Q.Siddiqov, F.Radjabov, D.Aliqulova (u)
155.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining "Virtual qabulxonasiga", shuningdek, vazirlikka aholi va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan muammoli masalalarni O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillarini sayyor qabul qilish borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Dekabr	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, B.Rajabov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	Suv xo'jaligini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar, qarz va grant loyihalarini jalb qilishni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar (investitsiya loyihalarining loyiha va smeta hujjatlarini, texnik iqtisodiy hisob-kitoblar, tender hujjatlar, smetalar va boshqalar tayyorlanishini va davlat ekspertizasida o'tkazilishini o'rnatilgan tartibda tashkil etish) yuzasidan Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining hisoboti.		O'.Sheraliyev, S.Astanov (u)
VIII bob. 2026-yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan vazir o'rinbosarlari huzurida muhokama etiladigan masalalar			
Vazir huzurida muhokama etiladigan masalalar			
156.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ–250-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalar doirasida erishilayotgan yutuq va natijalar bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish borasida: Amu-Qashqadaryo ITHB; Quyi Zarafshon ITHB; Norin-Sirdaryo ITHB; Zarafshon ITHB; Quyi Sirdaryo ITHB; Amu-Surxon ITHB tomonidan amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Iyul Avgust Sentabr Oktabr Noyabr Dekabr	Z.Ishpulatov, Sh.Suyunov, O.Norbekov (u)
157.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida hamkorlik samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–314-sonli qarorining 2-ilovasi 13-bandiga asosan "Butunjahon suvni tejaydigan texnologiyalar bo'yicha xalqaro forum"ni yuqori saviyada o'tkazish haqida.	Iyul, Avgust, Sentabr	R.Qarshiyev A.Qulmatov (u)
158.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 54-sonli qarori bo'yicha ishlab chiqilgan nazorat rejasiga asosan To'g'on va suv omborlaridan foydalanishni takomillashtirish hamda suv resurslari va to'g'onlarni boshqarish sohasida hamkorlik to'g'risidagi kelishuv bajarilishi to'g'risida.	Avgust	Z.Ishpulatov, R.Raximov, Z.Irisboyev, Sh.Ismailov (u)
159.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-apreldagi 206-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida Nizom"ning ijrosini ta'minlash, subsidiya olib joriy qilingan suvni tejaydigan sug'orish	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Raximov, Z.Irisboyev, N.Tashbayev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanilishini o'rganishni tashkil etish va amalga oshirilgan ishlar haqida.		
160.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 16-ilovasiga asosan 2026-yilning II yarim yilligida tizim tashkilotlar tomonidan 500 nafar oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni ishga qabul qilish rejasini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli bajarilishini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, D.Aliqulova (u)
161.	Vazirlik tizimida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ularning zaxirasini shakllantirish va malakasini oshirish bo'yicha vazifalar ijrosini tizimli ravishda tashkil borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, D.Aliqulova (u)
162.	O'zbekiston bilan Tojikiston, Qirg'iz Respublikalari hamda Turkmaniston o'rtasida transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish hamda transchegaraviy suv obyektlarini ishlatishni yaxshilash, shuningdek, suv xo'jaligi sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarning ijrosi haqida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, O.Xazratov (u)
163.	Suv fondi yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish va yer uchastkalarini suv xo'jaligi tashkilotlariga rasmiylashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar, erishilmagan natijalar va navbatdagi vazifalar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	R.Qarshiyev, B.Yunusov (u)
164.	Suv xo'jaligini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar, qarz va grant loyihalarni jalb qilishni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, S.Astanov (u)
165.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "2026–2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-393-sonli qarori bilan 2026-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlarni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va galdagi dolzarb vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, N.Xujaqulov (u)
166.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktabrdagi "Suv resurslari yo'qotilishining oldini olish hamda irrigatsiya tarmoqlarini yaxshilash chora-tadbirlar to'g'risida"gi 660-sonli qarori bilan 2025–2026-yillarda kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlar ijrosini so'zsiz ta'minlash amalga	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, N.Xujaqulov, O.Sabirov, O.Mingboyev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	oshirilayotgan ishlar haqida.		
167.	Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti hamda viloyatlar mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 2026-yilda melioratsiya obyektlari ni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari bajarilishini tashkil etish va prognoz ko'rsatkichlar ijrosini so'zsiz ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi dolzarb vazifalar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, N.Xujaqulov, B.Matkarimov (u)
168.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya syektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–250-sonli qaroriga muvofiq sohani raqamlashtirish uchun belgilangan reja ko'rsatkichlari bajarilishini tizimli ravishda tashkil etish va ta'minlash. Jumladan: - asosiy suv manbalaridan respublika chegarasida olinayotgan suv sarfini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi 322 ta raqamli qurilmalar o'rnatish; - 2 200 ta meliorativ kuzatuv quduqlarida avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy qilish ("Diver" qurilmalarini o'rnatish); - 604 ta nasos agregatlarida chiqarilayotgan suv hajmini onlayn rejimda monitoring qilish imkonini beruvchi qurilmalar o'rnatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi dolzarb vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	M.Karimov, S.Atabayeva (u)
169.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli topshirig'iga muvofiq asosiy suv manbalaridan respublika chegarasida olinayotgan suv sarfini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi 322 ta raqamli qurilma hamda 5 204 ta nasos agregatida chiqarilayotgan suv hajmini onlayn rejimda monitoring qilish imkonini beruvchi qurilmalarni o'rnatish. borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo'rayev (u)
170.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2026-yil 27-yanvardagi 02-PA 1-1-484-sonli topshirig'iga muvofiq 322 ta transchegaraviy va 28 ta viloyatlararo nuqtalarda onlayn suv kuzatuvini yo'lga qo'yish hamda 1 895 ta tumanlararo nuqtalarda onlayn suv kuzatuvini yo'lga qo'yish ishlari tashkil etish va ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi dolzarb vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	M.Karimov, S.Atabayeva, J.Jo'rayev (u)
171.	Suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va autsorsingni joriy qilish maqsadida alohida suv xo'jaligi obyektlarini fermer xo'jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlarga davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanishga berish hamda autsorsingni	Har oy yakuni bilan	M.Karimov, A.Tagayev, Z.Jumashev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	joriy qilish dasturlarini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha xususiy sheriklar bilan muzokaralar olib borish, ularga loyihaoldi hujjatlarini tayyorlashda ko'maklashish, va moliyaviy xulosa olish, davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha loyiha bitimini ishlab chiqish, tasdiqlash va belgilangan tartibda reyestrda kiritish uchun vakolatli davlat organiga taqdim qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.		
172.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-oktabrdagi "Quyida bo'lganda suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaning xususiy sektor uchun jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-302-sonli qarorining 7-bandiga asosan suv omborlari va yirik kanallarni to'yintiruvchi nasoslardan tashqari 2026-yilda Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi nasos stansiyalarining 50 foizini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida.	Har oy yakuni bilan	M.Karimov, A.Tagayev (u)
173.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 4 va 5-ilovalariga muvofiq 2026-yilda nasos stansiyalaridagi eskirgan 156 ta nasoslar va 149 ta elektrodvigatellarni yangi energiya tejamkorlariga hamda 6-va 6a-ilovalariga muvofiq 2026-yilda nasos stansiyalarga energotejamkor qurilmalar o'rnatish borasida hisobot davrida olib borilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda navbatdagi vazifalar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, O.Abdullayev, B.Mirzayev, A.Ilyosov (u)
174.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalar tomonidan 2026-yilda kollektor tarmoqlari bo'ylaridagi yer maydonlaridan samarali foydalanish va yordamchi xo'jalik tashkil qilish bo'yicha bosh reja ishlab chiqish chorvachilik, baliqchilik va parrandachilikni rivojlantirish choralari haqida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Kamilov (u)
175.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-sonli qarori bilan belgilangan tegishli bo'lgan ustuvor vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish vazifalari haqida Ichki audit boshqarmasining hisoboti.	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, Z.Abdurasulov (u)
176.	2026-yilning II yarim yilligida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri va o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni baholash yakunlari to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, A.Xasanov (u)
177.	"O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning 2027-2050-yillarga mo'ljallangan milliy konsepsiyasi"ni ishlab chiqish borasida hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, J.Usmanov A.Xasanov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
178.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori ijrosini so'zsiz ta'minlash, vaqtincha bo'sh turgan binolar va boshqa vaqtincha foydalanmayotgan asosiy vositalarni ijaraga berish, mavjud mashina-mexanizmlar yordamida ko'rsatilgan xizmatlardan, suv xo'jaligi obyektlari mintqa zonalarini ijaraga berish hamda yordamchi xo'jaligi hisobidan tashkilotlarning rivojlantirish jamg'armasiga mablag'lar tushirilishi to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	O'.Sheraliyev, J.Jonkayev (u)
179.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-yil-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-117-sonli farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sonli qarorining ijrosini ta'minlash bo'yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	R.Qarshiyev, M.Ibragimov (u)
180.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining "Virtual qabulxonasi"ga, shuningdek, vazirlikka aholi va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan muammoli masalalarni O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqi sh, jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillarini sayyor qabul qilish borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilmagan natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	Z.Ishpulatov, B.Rajabov, S.Alimov (u)
Vazirning birinchi o'rinbosari – Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov huzurida muhokama etiladigan masalalar			
181.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli topshirig'iga asosan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 7-band, 2-xatboshisiga asosan suv xo'jaligining nasoslari orqali chiqariladigan suv hajmi, real elektr energiya ehtiyojini aniqlash hamda risk-tahlil tizimini yo'lga qo'yish maqsadida barcha nasos agregatlariga suv va elektr energiya hisoblagichlarini xarid qilish va o'rnatish bo'yicha konsultant bilan birgalikda tender hujjatlarini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida.	Har oy yakuni bilan	O.Abdullayev, B.Mirzayev, S.Xoliqulov (u)
182.	Nasos stansiyalarda yordamchi xo'jalik va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha bajarilayotgan ishlar, shuningdek, qoramol, qo'y va echkilar, parrandachilikni tashkil bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	O.Abdullayev, K.Babadjanov, Q.Sharipov (u)
183.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli topshirig'iga asosan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 7-band, 3-xatboshisiga asosan	Har oy yakuni bilan	O.Abdullayev, B.Mirzayev,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	suv xo'jaligining nasoslari orqali chiqariladigan suv hajmi, real elektr energiya ehtiyojini aniqlash hamda risk-tahlil tizimini yo'lga qo'yish maqsadida barcha nasos agregatlariga suv va elektr energiya hisoblagichlarini o'rnatish uchun xarid qilish uchun ishlab chiqilgan texnik topshiriq asosida tender savdolariga qo'yish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida.		Q.Sharipov (u)
184.	Tuman (shahar) "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilgandan boshlab bugungi kunga qadar ularning yangidan tayinlangan rahbarlar kadrlari qo'nimsizligi holati to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	D.Alikulova, J.Xolmamatov (u)
185.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi va viloyatlar hokimlari tomonidan vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning rahbarlik lavozimlariga tavsiya etilgan nomzodlar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari yakunlari haqida.	Har oy yakuni bilan	D.Alikulova, J.Xolmamatov (u)
186.	Vazirlik markaziy apparati xodimlari tomonidan ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etish bo'yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar va navbatdagi vazifalar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	D.Alikulova, J.Xolmamatov (u)
187.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori 3-ilovasiga muvofiq 5 434 km kanallarni tozalash va ulardagi 5 436 dona gidrotexnika inshootlari hamda 5 272 dona gidropostni ta'mirlash-tiklash ishlarini ta'minlash borasida amalga oshiridayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.	Har oy yakuni bilan	I.Jo'rayev, N.Xudoyberdiyev (u)
188.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-250-sonli qarori 2.v-bandiga asosan Hisob palatasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 12 ta yirik suv xo'jaligi obyektni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o'tkazish ishlarini tashkil etish borasida amalga oshiridayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	I.Jo'rayev, N.Xudoyberdiyev (u)
189.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-dekabrda "Respublikadagi suv omborlari va sel suv omborlarining texnik holatini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 780-sonli qarorida belgilangan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida.	Har oy yakuni bilan	I.Jo'rayev, N.Xudoyberdiyev (u)
190.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 4 va 5-ilovalariga muvofiq 2026-yilda nasos stansiyalaridagi eskirgan 156 ta nasos va 149 ta elektrodvigateli yangi energiya tejamkorlariga hamda 6 va 6a-ilovalariga muvofiq 2026-yilda nasos	Har oy yakuni bilan	O.Abdullayev, B.Mirzayev, A.Ilyosov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
	stansiyalarga energotejamkor qurilmalar o'rnatish borasida hisobot davrida olib borilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda navbatdagi vazifalar to'g'risida.		
191.	Suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to'lovlar bekor qilinganligi hamda "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan Davlat budgetiga tushgan tushumning 40 foizini "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini moliyalashtirish, ularning balansidagi obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo'naltirilganligi haqida.	Har oy yakuni bilan	I.Jo'rayev, A.Tursunaliyev (u)
192.	Suv xo'jaligi tashkilotlariga lizing asosida berilgan texnikalarning maqsadli va samarali hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, lizing to'lovlari va ularga ko'rsatilgan servis xizmatlari bo'yicha vujudga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida.	Har oy yakuni bilan	R.Kamilov, Z.Ibragimov (u)
193.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalar tomonidan 2026-yilda kollektor tarmoqlari bo'ylaridagi yer maydonlaridan samarali foydalanish va yordamchi xo'jalik tashkil qilish bo'yicha bosh reja ishlab chiqish chorvachilik, baliqchilik va parrandachilikni rivojlantirish choralari to'g'risida.	Har oy yakuni bilan	R.Kamilov, Z.Ibragimov, D.Axmatov (u)
194.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida.	Har oy yakuni bilan	I.Jo'rayev, A.Tursunaliyev (u)
Vazir o'rinbosari R.Qarshiyev huzurida muhokama etiladigan masalalar			
195.	O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi suv munosabatlarining barcha sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shma ishchi guruhining navbatdagi yig'ilishi uchun transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha takliflarni, jumladan, "Chordara" suv omboriga kelayotgan suv miqdorini O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida bir xiligini ta'minlash uchun yagona gidropost qurish loyihasi haqida.	Yanvar	J.Abdurazzoqov, L.Boboqulov, D.Baxromov, A.Tursunaliyev (u)
196.	O'zbekiston bilan Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalarining suv-energetika idoralari rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tadigan navtdagi uchrashuvi uchun takliflar tayyorlash va uni muhokama qilish.	Fevral	J.Abduraz zoqov, D.Baxromov (u)
197.	2026-yil uchun tasdiqlangan "Ozyorniy" hamda "Daryoliq" magistral kollektorlarini rekonstruksiya qilish (2-bosqich) obyektlari bo'yicha 2026-yilda bajariladigan ish hajmlarining reja-grafiklari yuzasidan yig'ilish o'tkazish.	Fevral, Aprel, Iyun	O.Xazratov, F.Bobomurotov, T.Baxranov, M.Xalimova (u)
